



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(7)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 122 sahifa,
27-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA


Muqobil energiya manbalarida yarimo'tkazgichlar fizikasi: quyosh panellarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish muammolari	10
<i>Abdullajonova Bashorat Olim qizi</i>	
Xavfsizlik tuyg'usining psixologik mazmuni	13
<i>Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari: kompetensiyaviy yondashuv asosida	17
<i>Boybo'riyeva Saodat O'ralovna</i>	
Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	21
<i>Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi</i>	
Kurash sportida innovatsion mashg'ulot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari	26
<i>Madumarov Jahongir Urinbayevich</i>	
O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda steam texnologiyalarining o'rni va roli	29
<i>Yo'ldoshev Mirjalol Qosim o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak o'qituvchilar diagnostik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari	33
<i>Teshaboyev Akramjon Yuldashevich</i>	
O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir	39
<i>Turdibekova Risolat Shermatovna</i>	
6–7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarning ahamiyati	42
<i>Tursunova Durdona</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida zamonaviy ilmiy yondashuvlar: maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va sport natijalari	46
<i>Xalmirzayev Azizillo Nabijonovich</i>	
Veb-kvest" va "Til portfeli" texnologiyalarini bir butun integrativ model asosida o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi	49
<i>Yusupova Muxabbat Anatolevna</i>	
Содержание личностно-ориентированного образования и его роль в процессе самостоятельной подготовки студентов	53
<i>Рысова Галия Байбулатовна</i>	
Improving the Methodology for Teaching Lexical and Grammatical Transformations in the Translation of Literary Texts	57
<i>Asadova Zebiniso Makhmudovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari	62
<i>Beketov Nurseit Alijan o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boksni o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	67
<i>Rustamova Zuhro Sanjar qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	71
<i>To'ychiyeva Zulfiyaxon Abdulxoliq qizi</i>	
Mehrli maktabda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari	76
<i>Tursunova Dildora Ziyadullayevna</i>	
Kasbiy fanlar integratsiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida filologiya yo'nalishi talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi	79
<i>Yakubov Baxtiyor Baxriddin o'g'li</i>	
Ta'lim klasterlari faoliyatini avtomatlashtirish va monitoring qilish tizimini joriy etish	83
<i>M. Badalova</i>	



Нравственное воспитание студентов средствами русской классической литературы: современные педагогические подходы.....	86
Родина Ирина Витальевна	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining kasbiy identikligini shakllantirishda psixologik diagnostika va rivojlantiruvchi yondashuvlar	91
Feruz Tohirova	
Tarbiya fanini o'qitish jarayonida xalq pedagogikasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	99
Islomova Mushtaribonu Akram qizi	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	104
Nafisa Tuxtasinova	
Shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari	108
To'xtasinov Dadaxon Farxodovich, Nafisa Tuxtasinova	
Zamonaviy ta'lim oluvchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashning yangicha yondashuvi	113
Xudayberdiev Inom Xasanovich	
Yoshlar oilalarda ekologik madaniyati rivojlanishida turar joy muhiti va gender yondashuvlarining ahamiyati.....	117
Yusupova Muhabbatxon Abdulajon qizi	



TARBIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI



Islomova Mushtaribonu Akram qizi
 Buxoro davlat pedagogika instituti
 Umumiy Pedagogika kafedrası
 Pedagogika yo'nalishi 7 Ped 25 guruh magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini o'qitishda o'zbek xalq pedagogikasi vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida xalq og'zaki ijodi, milliy qadriyatlar va an'analarning o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishdagi samaradorligi empirik va nazariy metodlar asosida o'rganildi. Olingan natijalar asosida dars jarayonini samarali tashkil etishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Tarbiya fani, xalq pedagogikasi, ma'naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, pedagogik eksperiment, interaktiv metodlar, darslik, integrativ yondashuv, maqol, matal, ertak.

Abstract: This article examines the pedagogical potential of using the means of Uzbek folk pedagogy in teaching the subject "Education" in general secondary schools. The study employed empirical and theoretical research methods to investigate the effectiveness of folk oral traditions, national values, and cultural traditions in shaping students' moral and spiritual development. Based on the findings, methodological recommendations were developed for the effective organization of the teaching and learning process.

Key words: Education, Uzbek folk pedagogy, moral and spiritual education, national values, pedagogical experiment, interactive teaching methods, textbook, integrative approach, proverb, saying, fairy tale.

Аннотация: В данной статье с научной точки зрения проанализированы педагогические возможности использования средств узбекской народной педагогики в преподавании предмета "Воспитание" в общеобразовательных школах. В ходе исследования с применением эмпирических и теоретических методов изучена эффективность устного народного творчества, национальных ценностей и традиций в формировании духовно-нравственного облика учащихся. На основе полученных результатов разработаны методические рекомендации по эффективной организации учебного процесса.

Ключевые слова: предмет "Воспитание", народная педагогика, духовно-нравственное воспитание, национальные ценности, педагогический эксперимент, интерактивные методы, учебник, интегративный подход, пословица, поговорка, сказка.

KIRISH

Bugungi kunda jahon ta'lim makonida global raqamli transformatsiya va globallashuv jarayonlari yoshlar tarbiyasiga transformatsion ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda o'sib kelayotgan avlodni milliy qadriyatlar ruhida, mafkuraviy xurujlarga qarshi mustahkam immunitetga ega shaxs qilib voyaga yetkazish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim tizimida joriy etilgan integratsiyalashgan "Tarbiya" fani aynan shu bo'shliqni to'ldirishga yo'naltirilgan. Biroq zamonaviy darsliklardagi mavzularni faqat nazariy va deklarativ (pand-nasihat) shaklda tushuntirish kutilgan samarani bermayapti. Shu bois ta'lim amaliyotiga xalq pedagogikasini - asrlar davomida saralangan hayotiy tajribalar, og'zaki ijod namunalari va milliy an'analarni olib kirish zarurati tug'iladi.

Istiqlol sharofati bilan tariximiz va madaniy merosimizga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Biz endilikda unutilayotgan o'tmishimizni butun borlig'i, mahobati va buyukligi bilan ko'z oldimizga keltirmoqdamiz. Xalqimizning o'zligini anglash va milliy uyg'onish hissiyatini rivojlantirish, yoshlar ongiga tariximiz hamda uning boy qadriyatlarini singdirish, milliy g'oyaga asoslangan mustaqillik mafkurasi tuyg'ularini boyitib borish hayotimizning mazmuniga aylanmoqda. O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Agar jamiyat hayotimizning tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi - ma'naviyatdir. Biz Yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz." Haqiqatan ham, ma'naviyat insonning ruhiy va aqliy imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi, uning qalbini eng pokiza tuyg'ular bilan boyituvchi hamda ezgu maqsadlar sari yetaklovchi beqiyos kuchdir.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'zbek xalqi ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos maktab yaratgan. Turon zaminimiz - Turkistonning dovrug'i olamga sig'may, necha-necha zamonlardan beri ellardan ellarga, tillardan tillarga o'tib, doston bo'lib kelgani tarixiy asarlarda qayd etilgan. O'zbek xalqining yosh avlodni ijtimoiy hayotda komil inson etib tarbiyalashida xalq pedagogikasining o'rni beqiyosdir. Shu jihatdan o'zbek xalq pedagogikasi xalq va donishmandlarning yoshlarni davr talablariga muvofiq insonlar qilib yetishtirishda, ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirishda qo'llagan usul, vosita va tajribalar yig'indisidan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tarbiya fanini o'qitishda xalq pedagogikasidan foydalanish o'quvchilarda milliy qadriyatlar, Vatanga muhabbat va yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Xalq og'zaki ijodi, maqollar, ertaklar va urf-odatlar yordamida bolalarning dunyoqarashi boyitilib, ularda hayotiy tajriba hamda milliy g'urur tuyg'usi shakllantiriladi.

Xalq pedagogikasi tarbiyaning maqsad va vazifalari borasida muayyan xalqning hayotiy tajribasi hamda turmush tarzida shakllangan amaliy qarashlar majmui sifatida rivojlangan. U muayyan jamiyatda yashash uchun har bir inson amal qilishi zarur bo'lgan urf-odat, udum, xulq-odob, marosim, an'ana, turmush tarzi, badiiy ijod va o'yin kabi o'ziga xos xususiyatlarda namoyon bo'ladigan amaliy faoliyatni ham o'z ichiga oladi. Shunday ekan, yoshlarni ana shunday fazilatlarni o'zida mujassam etgan jamiyatning yetuk shaxslari etib tarbiyalashda xalq pedagogikasining maqsad va vazifalarini chuqur anglash zarur.

Xalq pedagogikasining bugungi kundagi yana bir muhim vazifasi milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, xalq pedagogikasi an'alarini ta'lim-tarbiya sohasiga tatbiq etish hamda uning eng yaxshi jihatlaridan samarali foydalanishdan iboratdir.

Xalq pedagogikasi boy ilmiy-pedagogik manbalarga ega. Pedagogika sohasida ijod qilgan M.J. Mutalipova, M. Ochilov, K. Hoshimov, I. Jabborov, M.T. To'laboyev, M. Mo'minov, G.A. Hidoyatov, B.A. Qodirov, O.M. Musurmonova, M. Sherboyev, R. Usmonov, A.K. Munavvarov va U. Mahkamov kabi olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy-pedagogik adabiyotlar xalq pedagogikasi sohasidagi muhim manbalar hisoblanadi. Ayniqsa, "Xalq pedagogikasi", "Pedagogika tarixi" va "Pedagogika" kabi darslik hamda o'quv qo'llanmalaridan asosiy manba sifatida foydalanilganligini alohida e'tirof etish lozim.


Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xalq pedagogikasi nihoyatda serqirra bo'lib, maxsus ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Bunday ko'p qirrali ilmiy merosning shakllanishida vatandoshlarimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (780-850), Ahmad al-Farg'oniy (797-865), Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy (IX asr), Abu Nasr Forobiy (870-950), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (973-1048) va boshqa buyuk allomalarning xizmatlari beqiyosdir. Sharq mutafakkirlarining ma'naviy madaniyat rivojiga qo'shgan hissasi, yosh avlod tarbiyasida xalq pedagogikasining o'rni haqidagi qarashlari hamda yozib qoldirgan bebaho asarlari mazmunan qadriyatlarning barcha yo'nalishlarini qamrab olganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Haqiqatan ham, buyuk allomalarimizning inson kamoloti haqidagi fikrlari jamiyat taraqqiyoti uchun yangi imkoniyatlar yaratishga qaratilganligi bilan alohida qadrlanadi.

Jamiyatimizda yangilanish jarayoni kechayotgan, milliy qadriyatlarimiz tiklanayotgan bir davrda milliy-ma'rifiy boyliklarimiz sirasiga kiruvchi o'tmish donishmandlari, buyuk allomalar va mutafakkirlarning bizga qoldirgan bebaho merosini o'rganish katta ahamiyat kasb etmoqda. Chunonchi, xalq pedagogikasi xalqning tarbiya borasidagi tajribalari majmui sifatida qaraladigan bo'lsa, allomalarimizning yosh avlodni axloqiy tarbiyalashga doir pedagogik g'oyalari xalq donishmandligi va xalq dunyoqarashi bilan o'zaro uyg'un hamda chambarchas bog'liqdir.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Dars jarayonida xalq pedagogikasi imkoniyatlarini samarali tatbiq etish quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:



1-rasm: Dars jarayonida xalq pedagogikasini o'rgatish usullari

Mazkur tadqiqotning metodologik asosi shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ma'naviy-axloqiy qiyo-fasini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi tamoyillariga tayanadi. Mavzuni yoritish, uning pedagogik imkoniyatlarini ochib berish va amaliyotda tekshirib ko'rish uchun quyidagi metodlar majmua-sidan foydalaniladi:



2-rasm: Pedagogik imkoniyatlarni ochib beruvchi metodlar

"Tarbiya" fani o'qituvchilari dars jarayonida xalq pedagogikasidan foydalanishda quyidagi metodik talab-larga rioya qilishlari maqsadga muvofiq:

Davriylik va yosh xususiyatlarini hisobga olish. Qadriyatlarni tushuntirishda o'quvchilarning yosh xususiyat-lari inobatga olinishi zarur. Boshlang'ich sinflarda (1-4-sinflar) sodda ertaklar, topishmoqlar va milliy o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lsa, 5-9-sinflarda dostonlar, hadislar, maqollar hamda mutafakkirlar o'git-lariga ko'proq urg'u berilishi lozim.

Zamonaviylik bilan uyg'unlik (integratsiya). Xalq pedagogikasi elementlarini faqat o'tmish merosi sifatida emas, balki bugungi kunning dolzarb muammolari (masalan, kiberbulling, internet madaniyati, axborot xavfsizligi va ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish) bilan bog'liq holda tushuntirish zarur.

Interaktivlik. O'quvchilar faqat tinglovchi bo'lib qolmasligi kerak. Ularga o'z oilalaridagi an'analar, bobo va buvilaridan eshitgan o'gitlar, maqollar va hayotiy tajribalar haqida kichik taqdimotlar, insholar yoki ijodiy loyihalar tayyorlash vazifasi berilishi maqsadga muvofiq.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqimiz yaratgan ana shu ma'rifiy fikr va g'oyalar, ta'lim-tarbiyaga oid boy meros minglab avlodlarni umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelgan. Demak, ajdodlarimiz merosi bo'lgan xalq pedagogikasining xalq donishmandligi va odobnomasining nodir sohasi sifatida e'tirof etilishi bejiz emas. U asrlar davomida ajdodlarimizning axloqiy, ma'rifiy shakllanishi va kamolotida muhim o'rin tutgan.

Chunonchi, xalq o'zining ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik qarashlari, falsafiy-axloqiy tushunchalari, hayotiy hamda ta'lim-tarbiyaviy xulosalarini xalq pedagogikasida aks ettirgan. Uning muhim yo'nalishlaridan biri milliy tarbiyani amalga oshirish bo'lib, asosiy mohiyati millatga xos bo'lgan qadriyat va xususiyatlarning saqlanishini ta'minlashdan iboratdir.

Tarbiya darslarida xalq pedagogikasi materiallarini samarali yetkazib berish uchun quyidagi interaktiv metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:

1-jadval: Xalq pedagogikasi qo'llanilishi

Metod nomi	Xalq pedagogikasida qo'llanilishi	Pedagogik maqsadi va kutiladigan natija
“Maqollar zanjiri”	O'quvchilar berilgan mavzuga (masalan, mehnatsevarlik, do'stlik) oid maqollarni aytib, musobaqalashadilar.	Nutqni o'stiradi, xalq donishmandligini yodda saqlash va tezkor fikrlashni rivojlantiradi.
“Rivoyat tahlili”	Sharq hikoyatlari yoki xalq rivoyatlari (masalan, Luqmoni hakim o'g'itlari) o'qib eshittiriladi va muammoli savol tashlanadi.	O'quvchilarda tanqidiy fikrlash va yaxshilik bilan yomonlikni farqlash (estetik va axloqiy filtr) ko'nikmasini shakllantiradi.
“Sahnada milliy qadriyat”	Hashar, mehmondo'stlik yoki kelin salom kabi an'analarning mazmunini kichik sahna ko'rinishida ijro etish.	Jamoada ishlash, milliy urf-odatlariga nisbatan hurmat va amaliy ijtimoiy ko'nikmalarni yuzaga chiqaradi.
“Klaster” (Ajdodlar merosi)	“Alisher Navoiy yoki Amir Temurning o'g'itlari” markaziy tushunchasi atrofida tarbiyaviy g'oyalarni guruhlash.	Tizimli fikrlash, tarixiy xotirani uyg'otish va buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lish tuyg'usini beradi.

Tadqiqot doirasida “Tarbiya” darslarida xalq pedagogikasi elementlaridan muntazam foydalanilganda o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi hamda axloqiy tushunchalarining shakllanish darajasi pedagogik kuza-tuvlar va so'rovnomalar orqali baholandi. Eksperiment guruhlarida quyidagi ijobiy natijalar qayd etildi:

- Milliylikni anglash.** O'quvchilarning 85 foizdan ortig'i xalqona an'analar va maqollarning hayotiy vaziyat-lardagi o'rnini to'g'ri baholay oldi.
- Nutqiy va mantiqiy rivojlanish.** Hikmatli so'zlar hamda rivoyatlar tahlili orqali o'quvchilarning o'z fikrini dalillash, mustaqil va tanqidiy fikrlash darajasi sezilarli darajada oshdi.
- Xulq-atvordagi o'zgarishlar.** Maktab hayotida va tengdoshlar o'rtasidagi munosabatlarda kattalarga hurmat, o'zaro yordam, hashar va hamdardlik kabi fazilatlarining namoyon bo'lishi kuchaydi.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi yosh avlodni hayotga tayyorlash va ularni samarali tarbiyalash ehtiyojidan kelib chiqqan. Bu ehtiyoj tarbiya borasida orttirilgan tajribalarni umumlashtirish hamda yoshlar tarbi-yasiga oid qonuniyat va tamoyillarni ishlab chiqish zaruratini taqozo etadi. Avvalo, pedagogikaning nazariy kurtaklari falsafa negizida paydo bo'lgan. Ta'lim-tarbiya masalalari hamisha mutafakkirlar, yozuvchilar va olimlar e'tiborida bo'lib kelgan. Ular bola tarbiyasi va barkamol insonni voyaga yetkazish haqidagi ilg'or qarashlari bilan pedagogik tafakkur rivojiga ulkan hissa qo'shganlar. Sharq va G'arb xalqlari ming yillar davomida ushbu ilmiy va ma'naviy merosdan bahramand bo'lib kelmoqda.



Tadqiqot va tajriba-sinov darslari jarayonida “Tarbiya” fanida xalq pedagogikasi elementlaridan (maqollar, xalq o‘yinlari va rivoyatlardan) muntazam foydalanilganda o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. An’anaviy (ma’ruza shaklidagi) darslar o‘tilgan sinflar bilan xalq pedagogikasi integratsiya qilingan sinflar taqqoslanganda quyidagi natijalar aniqlandi:

- o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish darajasi 22 foizga oshdi;
- dars jarayonida o‘quvchilarning faolligi (savol-javoblarda ishtirok etishi va mustaqil fikr bildirishi) 1,5 baravarga ko‘paydi;
- eng muhimi, o‘quvchilar darsda o‘rgangan maqollar va milliy qadriyatlarni kundalik hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga intilishlari kuzatildi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, xalq pedagogikasi “Tarbiya” fanining quruq va zerikarli nasihatgo‘ylikdan iborat bo‘lib qolishining oldini oladi. Biroq ta’lim jarayonida faqat o‘tmish merosiga tayanish ham yetarli emas. Zamonaviy pedagogika talablari asosida xalq ijodiyoti namunalarini bugungi kunning global tendensiyalari, axborot texnologiyalari va raqamli madaniyat qoidalari bilan uyg‘unlashtirish (kross-madaniy integratsiya) zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayonida xalq pedagogikasidan foydalanish ta’limning milliy zaminini mustahkamlaydi. Bu manba yoshlarning qalbi va ongiga milliy o‘zlikni anglash, ajdodlar merosiga hurmat tuyg‘ularini singdirishning eng ta’sirchan pedagogik vositalaridan biridir. Xalq pedagogikasi imkoniyatlaridan tizimli foydalanish nafaqat dars sifati va jozibadorligini oshiradi, balki mamlakatimiz uchun har tomonlama barkamol, ma’naviy yetuk yangi avlodni tarbiyalashga ham xizmat qiladi.

Shunday ekan, buyuk xalqimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Bizning burchimiz bunday qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni izchil ravishda takomillashtirib borishdir. Ma’lumki, xalqimizning salkam ming yillik tarixi islom dini bilan chambarchas bog‘liqdir.

Hozirgi zamon ta’lim-tarbiya tizimi va o‘zbek pedagogikasi tarixi turli oqimlar hamda jarayonlar ta’sirida rivojlanib kelmoqda va yuksak umuminsoniy qadriyatlar asosida taraqqiy etib bormoqda. Bu holat davlatimiz tomonidan ta’lim-tarbiya sohasida qabul qilinayotgan qonun va me’yoriy hujjatlarda ham o‘z aksini topgan bo‘lib, yurtimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning rolini oshirish orqali yoshlarni ma’naviy va jismoniy jihatdan barkamol, vatanparvar, o‘zligini va o‘z tarixini chuqur biladigan insonlar etib tarbiyalash asosiy maqsadlardan biri etib belgilangan.

Bundan tashqari, milliy qadriyatlarimizni o‘zida aks ettirgan istiqloq mafkurasini yoshlar ongiga singdirishda o‘zimizga xos milliy xususiyatlarimizni unutmasligimiz zarur. Bu milliy xususiyatlar oila, mahalla, ona yurt muqaddasligi, ota-onaga, Vatanga va kattalarga hurmat, ona tiliga muhabbat, sabr-bardoshlilik, mehnatsevarlik, halollik hamda mehr-oqibat kabi yuksak fazilatlarida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. - Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “Tarbiya” fani konsepsiyasi va o‘quv dasturi. - Toshkent.
3. Сайфуллаева Н. Б., Саидова Г. Э. Повышение эффективности занятий, используя интерактивные методы в начальном образовании // Научный журнал. - 2019. - № 6 (40). - С. 101-102.
4. Сайфуллаева Н. Б. Важность математики и естественных наук для учащихся начальной школы // Образование и инновационные исследования: международный научно-методический журнал. - 2023. - № 1. - С. 305-307.
5. Сайфуллаева Н. Б. Методы организации уроков математики в начальных классах с использованием цифровых технологий // Miasto Przyszłości. - 2023. - Т. 35. - С. 388-390.
6. Bahodirovna S. N. Forming Children’s Ideas about the Size of Objects and Their Measurement // Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research. - 2023. - Vol. 1, No. 3. - P. 102-107.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(7)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.